

GIYOHVANDLIK - ASR VABOSI

M.I. Raxmatullayeva

Angren Universiteti Katta o'qituvchisi

Kadirova Gulzira

Angren Universiteti talabasi

Kadirovagulzira5@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqola asosan giyohvadlik haqida va uning kelib chiqish sabablari, salbiy oqibatlar hamda, inson organizmiga ta'siri. Hozirgi kunda giyohvadlik dunyo bo'yicha dolzarb muommolardan biriga aylanib kelmoqda. Giyohvandlik balosiga qarshi kurashishda yurtimizda ishlab chiqilgan mustahkam huquqiy asoslar haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** giyohvadlik, norkamaniya, morfin, xulq-atvor, zaharli moddalar, psixotrop moddalar, noqonuniy aylanma, salbiy oqibatlar, tobe bo'lish.*

DRUG ADDICTION IS THE PLAGUE OF THE CENTURY

M.I. Raxmatullayeva

Ph.D. Angren University Senior Lecturer

Kadirova Gulzira

is a student of Angren University

Kadirovagulzira5@gmail.com

***Abstract:** this article is mainly about drug addiction and its causes, negative consequences and effects on the human body. Nowadays, drug addiction is becoming one of the most urgent problems in the world. It was discussed about the strong legal framework developed in our country to fight against the drug addiction problem.*

***Key words:** addiction, morphine, behavior, toxic substances, psychotropic substances, illegal circulation, negative consequences.*

Kirish: Giyohvandlik bu – turli xildagi narkotik o‘simlilar yoki kimyoviy narkotik moddalar ta’sirida odamning tobe bo‘b qolishi natijasida yuzaga keladigan kasallikdir. Giyohvandlikning xalqaro atamasi “Narkamaniya” bo‘lib, bu so‘z yunonchada “narke “-karaxtlik “maniya”-aqldan ozish so‘zlaridan kelib chiqan. Ya’ni bu moddani iste’mol qilgan odam harakatsizlanib aqliy faoliyatini yo‘qotib qo‘yadi, kishi hushida bo‘maydi. Odamni kayf qilish holati kuzatiladi. Giyohvandlik organizm somatik va ruhiy holatining chuqur o‘zgarishiga sabab bo‘ladi va giyohvandni tanazzulga olib boradi. Giyohvandlikda o‘zini to‘xtatib bo‘lmaydigan darajada giyohvand moddalarni iste’mol qilish mayli paydo bo‘ladi, giyohvand moddaning miqdoriga nisbatan ehtiyoj, ruhiy va jismoniy bog‘liqlik ortib boradi. Giyohvandlik asta-sekin boshlanib, surunkali davom etadi. Giyohvand moddalar dastlab xushnudlik, dimog‘chog‘lik, xotirjamlik hissini uyg‘otib, kayf qildiradi, keyin bora-bora bu kasallikka aylanadi.

Asosiy qism: Giyohvandlik 21-asrning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. O‘rta srlarda insoniyat hayotiga jiddiy xavf sogan vabo va o‘lat kabi kasalliklar, hozirgi kunda giyohvandlik bilan o‘rin almashdi desak adashmagan bo‘lamiz. Hozirgi kunda giyohvandlik avj olib bormoqda. Giyohvandlik insinni jarlikka boshlovchi illat hisoblanadi. Unga ruju qo‘yish yoki o‘rganib qolish har xil sabablar ortidankelib chiqadi. Ya’ni, o‘smirlik paytida ota – onanig farzandlarga yetari darajada e’tibor qilmasligi, yoki bo‘lmasam ba’zi hollarda masalan :tashvish tushganda, e’tiborsizlikdan va shunga uxshash holatlarda ,ularga yechim topa olmay giyohvandlikni yechim deb o‘ylab ko‘r – ko‘rona o‘rganib qolishadi bundan tashqari yurtimizda 26-iyun “Giyohvandlikka – qarshi kurashish” kuni deb belgilangan. Bu esa har bir yosh avlodni yanada o‘zligini anglashi uchun xizmat qiladi. Giyohvandlik asosan 3 ta davrda kichadi.

Birinchi davr: Odam giyohvandlik moddasini iste’mol qilganidan so‘ng, organizm shu narkotikaga mostlashishni boshlaydi, u endi o‘zi belgilangan vaqtda dorini qabul qilishga undaydi.

Ikkinchi davr: asosan odamning hissiy kayfiyati hamda ruhiyati mostlashib qoladi. Shundan so‘ng u yanada ko‘proq hohlashni boshlaydi. Undagi simptomlar doimiyligi ham oshib ketadi.

Uchinchi davr: Nafaqat ruhiyat balki jismoniy tomondan ham qabul qilishga tal’ab oshadi. Endi bemor ya’ni giyohvand bu vaqtda dorini qabul qilish uchun oilasidan, yaqinlaridan ha vos kechishga, hatto ularga jismoniy tazyiq o‘tkazishga tayyor bo‘ladi. Giyohvand moddalarni doimiy iste’mol qilish natijasida o‘pka, yurak, me’da ichaklarda hamda miyada turi xil surunlikda kasalliklar kuzatiladi. Bunday bemorlarni asosan giyohvandlik bilan shug‘ulanadigan kasalxonalarga jo‘natishadi va shu yerdagi vrachlar nazoratida bo‘lishadi.

Xulosa: Darhaqiqat, xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin, har birimiz bu hayotga bir marta kelamiz shunday ekan bu hayotimizni yaxshi ishlarga sarflab, mazmunli o‘tkazish har birimizning o‘zimizga bog‘liq . Bugungi kunda yurtimizda va boshqa qo‘shni davlatlarda ham “Yoshlar – giyohvandlikka qarshi” shiori ostida davr suhbatlari o‘tkazilmoqda. Bulardan ko‘rinib turibdi-ki hozirgi o‘sib kelayotgan yosh avlodga buning zararlari tushuntirish va bilib bilmay bu yo‘lga kirishning oldini olish va profilaktik chora tadbirlar o‘tkazilib kelmoqda. Ularning hayotga bo‘lgan qiziqishlari oshirish ,asosiysi ularni bo‘sh vaqtlarid unumli foydalanish turli xildagi qiziqarli dars to‘garaklariga berish kabi jarayonlarni qo‘lash tavsiya etiladi.

Shu yo‘l bilan biz yana bir muommoga yechim topgan bo‘lamiz va uning oldini olishga o‘z hisamizi qo‘shamiz.

Nima senga kerak bo‘ldimi qamoq,
Xayolinga olsangchi, onangni shu choq.
Hali ham kech emas, ochgin qushoq,
Giyohvandlik bo‘lmas to‘g‘ti yo‘l ishon.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uwed.uz>
2. <https://uz.m.wikipedia.org>
3. Aripov A. “Xuquqbuzarlik profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqorolik qonunchiligi konsepsiyasi asosida faoliyat” 2020-YIL